

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI TARBIYACHILARDA PEDAGOGIK
MAHORATNI SHAKILLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.

Botirova Yorqinoy

Guliston Davlat Pedagogika Instituti o'qituvchisi.

Toshtemirova Mavjuda

Guliston Davlat Pedagogika Instituti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14496273>

Annotatsiya. Pedagogikada o'qituvchilarning tarbiyachilik mahorati doimiy o'zgarib turadigan, jamiyat talablaridan kelib chiqib, to'ldirilib boriladigan bir butun tizimga ega. Uning bir -biri bilan bog'liq quyidagi tarkibiy qismlari o'qituvchining tarbiyaviy faoliyatida muhim yo'nalishlar bo'lib, doimo mazmunan boyitilib boriladi. Tarbiyachi-o'qituvchilarning mahorati har bir o'qituvchiga alohida yondashuv imkoniyatlarini topish, tarbiyachi iste'dodida nomoyon bo'ladigan holatlarda uning faolligini oshirishga qaratiladi. Tarbiyachi tomonidan uyushtiriladigan tarbiyaviy tadbirlarga qo'yiladigan asosiy talablar; tarbiyaviy tadbirlar hech qachon tasofidiy bo'lmasligi va har bir tadbirga puxta tayyorgarlik ko'rilishi lozim.

Kalit so'zlar: pedagogik mahorat, ijtimoiy psixalogik tizim, etnik tizim, tarbiyaning uzluksizligi, ixtiyoriylik, o'z-o'zini anlash, tarbiya jarayoni ko'p qirrali jarayon, tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, tarbiyachilarni malaka almashinuvi.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 30 sentabrda PF- 152-son "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar" to'g'risidagi Farmoniga muvofiq maktabgacha ta'lim tashkiloti hodimlarini malakasini oshirish va ularni malaka almashinuvi haqida belgilab berdilar.

Hususan 3-4-bandlarida aynan tarbiyachilarni kasbiy maxoratlarini rivojlantirish bo'yicha bayon etilgan va 'Metodik mahorat' 'Metodik mahorat kuni' 'Metodik mahorat soatlari' kabi yangi metodlar takomillashuvlar keltirilgan. Shunday ekan bugungi kunni tarbiyachisi har kuni har soatda bilimni yangilab borishi va malakasini to'laligicha rivojlangan davlatlar miqyosida oshirib borishi shunga mos ravishda bugungi kunni farzandlarini rivojlangan davlatlarni farzandlari qatoridagiday tarbiyalamog'i lozim.

Asosiy qisim.

Ijtimoiy psixalogik tizim. Tarbiyachi – pedagogning tarbiyachi sifatidagi mahorati –bu tarbiyalanuvchilarni ma'lum bir maqsadga muvofiq tarbiyalash uchun mo'ljalga olish san'atidir.

Bolalar har kuni quvonchli daqiqalarni, katta-kichik ko'ngilsizliklarni boshdan kechirishadilar. Ular tarbiyachilarni o'zlariga nisbatan yaxshi va yomon yoki insoniy munosabatlarini tez ajrata oladilar va bunga darhol o'zlarini javoblarini qaytaradilar. Ijtimoiy – psixalogik bilim va malakaga ega bo'lish tarbiyachida uddaburonlikni va sezgirikikni shakillantiradi. U bolalar jamoasini uyistira oladi, bolalar qalbiga yol topa oladi. Chunki bolalar jamoasi umumiy maqsad asosida tashkil topgan, yuqori darajada birlashgan bo'lib, shaxs shakillanishining yetakchi omili sifatida ijtimoiy munosabatlar ichida muhim yacheyka hisoblanadi.

Bolalarning jamoa bilan yaxshi munosabatda bo'lishi uchun tarbiyachi quyidagi omillarga e'tibor berishi shart;

- har bir bolaga pedagogic topshiriqlar qo'yishi;
- jamoada o'zaro xayrihohlik, o'zaro yordam muhitini shakillantirish;
- bolalarning o'zaro aloqalarini kuchaytirish, ijodiy faoliyatini rivojlantiruvchi faoliyatlarni tashkil qilish;
- bolalarga o'zaro teng va adolatli munosabatda bo'lish.

Agar tarbiyaviy vosita, usul, metodlar orqasida yetakchi g'aya turmasa, texnologik tizim va ijtimoiy psixalogik munosabatlar tizimi maqsadli tarbiyaviy natijalar bermaydi. Etnik tizimda ulkan tarbiyaviy maqsadlarga erishishi uchun tarbiyachi-pedagoglardan nihoyatda mohirona talabchanlik, ijodiy ta'sir etish vositalarining birligiga erishish talab qilinadi;

- Tarbiyada bolalar jamoasi muhitining birligi;
- bolalar mustaqilligi va o'z – o'zini tarbiyalashning birligi;
- fuqorolik va insoniylikning birligi;
- talabchanlik va ishonchbirligi;
- Bola shaxsiga ehtiyotkorona munosabat;
- Jinsiy tafovutlarni hisobga olish;
- Bolaning axloqiy va jismoniy sog'lig'i haqida qayg'urish;
- Axloqiy me'yorlarga qayg'urish.

Tarbiya mazmunini eng muhim xususiyatlaridan biri – bu, insonni o'z –o'zini anglashi, uning shaxsiy hayoti va faoliyati o'zi yashab turgan muhitning subekti sifatida e'tirof etilishi bilan tavsiflanadi. Insonni kamolotida fuqorolik, kasbiy va axloqiy jihatdan o'z- o'zini anglashi, uning shaxsiy hayoti va faoliyati o'zi yashab turgan muhitning subekti sifatida e'tirof etilishi bilan tavsiflanadi. Bolalarni o'z - o'zini tarbiyalash metodlariga ko'nikma hosil qildirish tarbiyachi – pedagoglarning mahoratiga, tarbiyaviy faoliyatini to'g'ri tashkil etishga bog'liq.

Bolalar odatda yaqin kishisining xulq- atvoriga taqlid qiladilar. Shuning uchun tarbiyachi pedagoglarda o'z pedagogik mahoratlariga tayanib, bola qalbida o'ziga nisbatan ishonch, mehr tuyg'ularini uyg'ota olishi lozim. Tarbiyalanuvchilar pedagogning bevosita nazoratida ta'lim va tarbiya jarayonida, dam olishda, jamoat ishlarida, o'z-o'zini tarbiyalash usullariga ko'nikma hosil qiladilar, bu usullar o'quvchilarni tashabbuskorlikka, mustaqil fikr-mulohaza yuritishga undaydi.

Pedagog tarbiya jarayonida quyidagi metodlardan foydalanishi mumkin;

- o'z-o'zini tahlil qilish va nazorat qilish;
- o'z – o'zini baholash (tengdoshlariga taqlid qilish asosida);
- izohlash (o'quvchining siyosiy, madaniy, estetik, huquqiy mavzularda og'zaki ta'sir o'tqazish).

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da va ta'lim –tarbiyani yanada takomillashtirishga qaratilgan qator hujjatlarda shaxsning erkinligi, mustaqil fikirlay olish qobiliyatini shakillantirishga birlamchi e'tibor berilmoqda. zero, erkinlik ta'minlangan joyda fikr rivojlanadi va jamiyat kuchli bolish garovini ta'minlaydi. Hususan, bir necha imkoniyatlardan birni ixtiyoriy tanlab olishga sharoit bo'ladi.

Tarbiya jarayoni ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi subektiv va obektiv omillar ko'zga tashlanadi. Tarbiyaning yana bir xususiyati uzoq muddat davom etishidir / tarbiya natijalari tez su'ratda yaqqol ko'zga tashlanmaydi. O'zida insoniylik sifatlarini shakillantirgan insonni tarbiyalash uchun uzoq muddat talab etiladi. Shunday ekan bugungi kunni ilg'or pedagogi ota-onalar bilan hamkorliklari ostida tarbiyaviy ishlarni ta'lim bilan uzviy bog'lagani holda rejalashtirishi lozim. Mohir pedagog tarbiyaviy ish rejasiga aniq bir maqsadni qo'yadi. Dastur asosida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha alohida tarbiya ishlatini olib boradi;

1. Tarbiyalanuvchilar olamning hayotiy yo'nalishlarini diqqat bilan o'rganishi.
2. Xarakteri va hulqidagi og'ishganlik sabablarini o'rganish.
3. Ijobiy yo'nalishga, o'zgarishga ta'sir etuvchi hayotiy ko'nikmalarni tanlash.

Tarbiyaviy faoliyat samaradorligini aniqlash masalasi murakkab masaladir. Hech qachon tarbiya natijalarini o'tqazilgan tadbirlar, ishtirok etgan tarbiyalanuvchilar soni bilan belgilab bo'lmaydi. Tarbiyaviy ish samaradorligi tarbiyalanuvchilarning tarbiyalanganlik darajasi bilan baholanadi.

Xulosa.

Prizidentimiz farmonlarida belgilab qo'yilganidek tarbiyachilarni maxoratini oshirishni uchun “Metodik mahorat kuni” “Metodik mahorat soatlari” da kengroq fikr olishlari, malaka,

mahorat almashinishlari juda katta pedagogik bilimlarni oshishishiga zamindir. Bugungi kunni bolasini oldi qochdi, eskirgan metodlar bilan aldashimiz, ularni jahon mamlakatlarini o'qitish tizimidan foydalanmasligimiz o'zimiz va kelajagimiz uchun juda katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bolalik kattalikning, kommillikni poydevoridir. Shunday ekan biz tarbiyachilar zamonaviy bilimlarni, zamonaviy kasblarni, zamonaviy texnologiyalar asosida tushuntira olishimiz lozimdir. Buning uchun albatta ilg'or pedagog kreativ, izlanuvchan, yetarlicha bilim va malakalarni egallamog'i kerak. Fanlar aro integratsiyalab, qiziqarli, mazmunli tushuntira olish mahoratini egallab borishi maqsadga muvofiqdir. Bolalik barcha istedodlarni nomoyon bo'lish, kurtak otib kelayotgan davr hisoblanadi. Pedagog tarbiyachi har bir bolani qiziqishlarini aniqlagan holda individual yondashib rivojlantiradi. Biz tarbiyachilar bolalarning qiziqish va ehtiyojlarini chuqur his etgan holda, vaziyatni hisobga mavzu tanlashimiz, uni tayyorlash va o'tqazishda o'quvchilarni keng ko'lamda jalb etib, har bir bolani hohish istaklari keskin rad etmasdan, yana ham o'ylab ko'r, qiziqarliroq yo'llarini ham izlab topib ko'rsang boladi deyishimiz o'rinlidir.

Tarbiyachini ijodkor bo'lishi, bolalarbi ham ijodiy faoliyat yuritishga jalb qiladi. Har bir tarbiyalanuvchilarimizda o'zini va boshqalarni hurmat qilishga o'rgatishimiz ham muhimdir. Shundagina mashg'ulot jarayonida adolatli o'yinlar, ahil jamoa shakillanadi.

REFERENCES

1. Musurmanova, A., Jumanioyozova, M. T., Isaqulova, N. J., & Jumaev, A. (2018). General Pedagogy.
2. Musurmonova O, Baubekova G. Uzbek folk pedagogy. Tashkent. 2000;320.
3. Артыкова, Д. М. (2016). Интегрированная оценка факторов риска формирования синдрома первичного "пустого" турецкого седла. Вестник Совета молодых учёных и специалистов Челябинской области, 3(3 (14)), 4-6.
4. Shagazatova, B. X., Artikova, D. M., Ahmedova, F. S., Mitxaydarova, F. S., & Ahmedova Sh, A. (2023). ENDOKRINOLOGIYA MUTAXASSISLIGI BO'YICHA KLINIK REZIDENTLARNI O'QITISHDA «CASE»-USULI (Doctoral dissertation, Ўзбекистон, Тошкент).
5. Артикова, Д. М., Мирхайдарова, Ф. С., Ахмедова, Ф. Ш., & Артиков, А. Ф. (2023). Изучение инсулинового ответа на введение пиримидиновых нуклеотидов у пациенток с ожирением и синдромом поликистозных яичников (Doctoral dissertation, Ўзбекистон, Тошкент).

6. Джамолдинова, О. (2015). Совершенствование педагогических механизмов реализации принципов преемственности и непрерывности в развитии культуры здоровой жизни молодежи. Каталог авторефератов, 1(1), 1-84.
7. Jamoldinova, O. R. (2015). Improving the pedagogical mechanisms for the implementation of the principles of continuity and continuity in the development of a culture of healthy living among young people.
8. Ismailova, Z. K., Jamoldinova, O. R., Khimmataliev, D. O., Khakimov, J. O., & Daminov, O. O. (2020). Use of the art of management in improving the teaching skills and pedagogical techniques of the modern teacher. *Solid State Technology*, 258-267.
9. Шагазатова, Б. Х., Мирхайдарова, Ф. С., Артикова, Д. М., Ахмедова, Ф. Ш., & Кудратова, Н. А. (2019). Особенности течения сахарного диабета у вич-инфицированных больных.
10. Мусурмонова, О., & Жамолдинова, О. (2010). Миллий истиқлол ғояси ва маънавият асослари фани ёшларнинг соғлом турмуш маданиятини ривожлантиришда муҳим оил. Халқ таълими.—Тошкент, (1), 4-11.